DAVLAT VA HUQUQ NAZARIYASINING YURIDIK FANLAR TIZIMIDAGI BUGUNGI KUNDAGI O‘RNI

Sobirjonova Sevinch Akmaljon qizi
Namangan Davlat universiteti talabasi Yuridik fakulteti
Yurisprudensiya yo‘nalishi YU.AR-22 guruh talabasi.
Qosimov Xamidullo Abduqaxxor o‘g‘li
Namangan Davlat universiteti talabasi Yuridik fakulteti
Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi yo‘nalishi M.AU-21 guruh talabasi.

Annotatsiya. Ushbu maqola Davlat va huquq nazariyasi fanini o‘rganishdan qo‘yilgan maqsad talabalarga davlat huquqning vujudga kelishi, rivojlanishi, faoliyat ko‘rsatishi va istiqboli to‘g‘risidagi eng umumiy qonuniyatlar yuzasidan tushunchalarni shakllantirishdir. Demokratik yangilashda davlat va huquq nazariyasi fanining roli Mamlakatimizda ijtimoiy-siyosiy hayotning barcha jabhalarini isloh qilish jarayonida yangi zamonaviy g‘oyalar, yangicha yondashuvlar shakllanishi haqida ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: Davlat va huquq nazariyasi, yurdik fan, ta’lim odillik, huquqshunos, adolat, rivojlanishi, islohotlar, davlatning kelib chiqish tarixi.

Bugungi kunda yurtimizda ta’lim sifati rivojlanib bormoqda. Ayniqsa ertamiz kelajagi bo‘lgan yoshlarga juda katta imkoniyatlar yaratilmoqda. Shuning o‘rnida aytish joizki yurdik fanlarni ham o‘rni o‘zgacha misol uchun “Davlat va huquq nazariyasi” fani ya’ni yurdik fanlardir. Davlat va huquq nazariyasi zamonaviy huquqshunos kadrlarni tayyorlash tizimida yetakchi o‘rinni egallaydi. Davlat va huquqning kelib chiqishi, rivojlanishi, faoliyat yuritishi va istiqboli bilan bog‘liq eng umumiy qonuniyatlarni ochib berish barobarida mazkur fan davlat va huquq hodisalarining tabiatini tushunish, ularning jamiyat rivojlanishidagi o‘rni va rolini aniqlash imkonini beradi. “Hech shubhasiz, yurtimizda erkin, adolatli va farovon hayot qurish jarayonida ijtimoiy-siyosiy munosabatlar, odamlarning ongi va tafakkuri ham o‘ziga xos, shu bilan birga, mutlaqo yangicha ma’no kasb etib bormoqda. Xususan, shaxs va davlat, inson va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlar yangicha mazmun va shakl topib, yangi xususiyatlar, yangi tamoyillar asosida takomillashib borayotganini sezish, anglash qiyin emas. Binobarin, bularning barchasi yangicha qadriyatlar va demokratik printsiplar mohiyatiga, o‘z turmush va tafakkur tarzimizga mos, biz barpo etishga intilayotgan erkin fuqarolik jamiyati talablariga javob beradigan munosabatlar sifatida ijtimoiy fanlarning asosiy tadqiqot mavzulariga aylanishi darkor”.[1] Yurtimizdagi oliy ta’lim tizmida darslik sifatida o‘tilayotgan Davlat va huquq nazariyasi fani davlat va huquq sohasidagi hozirgi zamon ilmiy konsepsiyalarini inobatga olgan holda tayyorlandi. U davlat va huquqni talqin etishdagi an’anaviy yondashuvlar bilan bir qatorda yangi muammolar hamda nuqtai nazarlarni ham qamrab olgan. Shuningdek, unda O‘zbekistonda shakllanayotgan demokratik davlatchilik va huquqiy tizim xususiyatlariga oid nazariy xulosalar o‘z ifodasini topgan. Davlat va huquqning mohiyati, mexanizmi, funksiyalari va islohotlar davridagi roli jonli tarzda bayon etadi. Albatta tariximizga nazar solsak qadimiy qo‘lyozmalar qoldiqlariga ko‘ra eng qadimgi tuzummni davrlashtirish ibtidoiy jamoa tuzumidan boshlangan bosqichma-bosqich urug‘chilik jamiyat yaralgan. Ilk sivilizatsiyalarning vujudga kelishi esa dehqonchilik va chorvachilik bilan bog‘liq. Old Osiyoning o‘troq aholisi tez fursatda ko‘payib bordi. Cho‘ponlar va dehqonlar o‘rtasida suv manbalari va soz yerlar ustida janjallar bolib turardi. Qabilalar bir biriga hujum qila boshladilar shu tariqa ma’lum bir aholi chegaralar yaratib mudofaa devorlari bilan o‘rab olindi. Hujum qilishlar boshqa davlatlarni bosib olish natijasida dehqonchilik rivojlandi. Temir qurollarining keng tarqalishi mehnat unumdorligini oshirdi. Bu esa ishlab chiqarishning yanada rivojlanishiga zamin yaratdi. Qabila urug‘ oqsoqollarining ta’siri tobora kuchaya borgan. Doimiy harbiy to‘qnashuvlar sharoitida qabilalar ittifoqlari paydo bo‘ldi. Bu ittifoqlarga harbiy sardorlardan saylangan kishilar rahbarlik qilganlar, jamiyat esa harbiy

demokratiya tamoyillari asosida yashay boshladi. Shu tariqa davlatlar vujudga kela boshlagan va faoliyatini pog‘onama pog‘ona yuksaltiradi.

Demokratik yangilashda davlat va huquq nazariyasi fanining roli Mamlakatimizda ijtimoiy-siyosiy hayotning barcha jabhalarini isloh qilish jarayonida yangi zamonaviy g‘oyalar, yangicha yondashuvlar shakllanmoqda. Aynan davlat va huquq nazariyasining qator masalalarga yangicha nazar tashlash fursati kelganligini bildiradi. Ayniqsa mamlakatimizda olib borilayotgan demokratik huquqiy islohotlar, o‘zgarishlar, yondashuvlar davlat va huquq tushunchalari, mohiyati, vazifasini yangicha talqin qilishni taqazo etmoqda “Xalq davlat idoralariga emas, balki davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak”

Davlat va huquq nazariyasi fani-bu juda keng doiradagi odamlar tomonidan amalga oshiriladigan professional tadqiqot faoliyati shu bilan birga, fanning maqsadi, tadqiqot faoliyatining boshqa turlaridan farqli o‘laroq, faqat ma’lum bir bilimga erishish emas, balki uni boshqaradigan qonuniyatlarni kashf qilishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Islom Karimov “Yuksak manaviyat yengilmas kuch” Toshkent “Ma’naviyat” 2008 (78-bet)
2. Sh.A.Saydullayev “Davlat va huquq nazariyasi” Toshkent “Yuridik adabiyotlar publish” 2021
3 Erkin Xojiyev “Davlat va jamiyat boshqaruvining huquqiy asoslari” o’quv qo’llanma Toshkent “Yangi kitob” 2017
4. X.T.Odilqoriyev “Davlat va huquq nazariyasi” Toshkent “Sharq” 2009
5. A.S Sagdullayev -Qadimgi dunyo tarixi
6. R.Shamsutdinov,X.Mõminov "Õzbekiston tarixi"Toshkent "Akademnashr"2019
4. https://law.sfu.kras.ru
5.www.ziyo.uz